

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI BUXORO DAVLAT
UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI MAKTABGACHA
TA'LIM VA BOSHLANG'ICH TA'LIM NAZARIYASI VA
METODIKASI KAFEDRALARI**

**"BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA
SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XALQARO
TAJRIBALAR"**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANIMATERIALLARI

2022-yil, 13-14 may

BUXORO- 2022

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TEATRLASHTIRILGAN TOMOSHALAR ORQALI MEHNATSEVARLIK ASOSIDA TARBIYALASH

**Raxmonova Dilfuza Maxmudovna,
Buxoro davlat universiteti
Pedagogika kafedrasini o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarni teatrlashtirilgan tomoshalar orqali mehnatsevarlik asosida tarbiyalashning mazmuni ona vatanga muhabbat, atrofdagilarga mehribonlik, rahmdillik, kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, go'zallikni ko'ra bilish va unga amal qilish kabi xulq-atvor sifatlarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Mehnatsevar, teatr, mustaqillik, sofkillik, xushmuomilalik, kamtarlik, mehribonlik, rahmdillik, tarbiyachi, qo'g'irchoq.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganligi tufayli amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganish, tiklash imkoniyatlari yaratildi.

Jamiyat taraqqiyotini yuqori pog'onalarga olib chiqish muammolari bosqichma-bosqich hal etilmoqda. Ana shunday muammolardan biri yoshlar ta'limg-tarbiyasining tubdan yangilanishi bo'lib, uzlksiz ravishda davom etadigan bu jarayonning milliy, tarixiy tajribalarga tayanilishidir.

Kelajagimiz poydevori bo'lgan yoshlarning ertangi kuni qanday bo'lishi, ko'p jihatdan ularni bugun qanday ta'limg-tarbiya olayotganiga, ular yashayotgan ijtimoiy muhitga bog'liq. Shu jihatdan olib qaralganda, bugun ustoz, murabbiy, ota-onasi va keng jamoatchilik bolaning ertangi kuni uchun birdek mas'uldir.

Maktabgacha ta'limg muassasalari tarbiyalanuvchilarining ongida yuksak axloqiy sifatlarning shakllanishida oila a'zolari va tarbiyachilarning faoliyati alohida ahamiyatga ega. Zero, oila a'zolari, tarbiyachi va bola o'rtasida sofkillik, xushmuomilalik, kamtarlik, o'zaro, hurmat bir so'z bilan aytganda, samimi munosabat kabi xislatlar mavjud bo'lsa, bu ibratli axloqiy sifatlar bolalarga ijobjiy ta'sir etadi. Bola o'z yaqinlarini hurmat qilish va o'z burchini vijdonan bajarishga intila boradi. Tarbiyachi va ota-onalar bolalarga Vatanni sevishga, mehnatsevarlikka, ota-onalar va o'zidan kattalarga hurmatda bo'lishga, o'zidan kichik bo'lgan bolalarni hurmat, singil va ukalarini himoya qilishga, do'st sirini saqlashga va sadoqatli bo'lishga eng kichik yoshlidanoq o'rgatib borishlari kerak.

Mehnatsevarlik keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning zamirida tabiat, ijtimoiy hayot, turmush va kasbga munosabatni tarbiyalash yotadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnatsevarlik asosida tarbiyalashning mazmuni Vatanga muhabbat, atrofdagilarga mehribonlik, rahmdillik kattalarga hurmat, mehnatsevarlik, go'zallikni ko'ra bilish va unga amal qilish kabi xulq-atvor sifatlarini o'z ichiga oladi. Bolalarni go'zallikni idrok etish orqali tarbiyalab borilar ekan, asta-sekin ularda o'zgalarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, do'stlikka bo'lgan sadoqat, hamdardlik bildirish, boshqalarga ko'maklashish, qayg'urush kabi xususiyatlar tarkib topa boshlaydi.

She'riyat mulkinining sultoni, buyuk o'zbek mutaffakiri Alisher Navoiyning odob-axloq, ta'limg-tarbiyaga oid ilg'or qarashlari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. Uning ijodidagi falsafiy-axloqiy fikrlar, hikmatlar va o'gitlar o'zining muhimligi va dolzarbligi jihatdan umuminsoniy ahamiyatga ega. Navoiy barcha insonlarni ezgulikka, o'zaro hamjihat bo'lishga, nasl-nasabidan qat'i nazar, mehr-oqibatli bo'lishga, milliy urf-odatlarga sadoqatli bo'lishga, mehnatsevar bo'lishga da'vat etgan, Zero,

"Aql ila olam yuzin obod qil,

Xulq ila olam elini shod qil", deydi Navoiy.

Erkin bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan yangi jamiyatni barpo etish og'ir va qiyin kechuvchi g'oyat murakkab jarayondir. Chunki uni chetdan kelgan biror sehrgar yoki mutaxassislar emas, balki shu jamiyatda yashayotgan, ishlayotgan kishilar qurmog'i darkor. Bunga esa jamiyat a'zolarining, ayniqsa, kelajak poydevori bo'lgan yoshlarning ongi va tushunchalarini o'zgartirmasdan turib erishib bo'lmaydi.

Ota-bobolarimizning karvonlari dunyo kezib, xalqimiz yaratgan, ishlab chiqargan turli-tuman mahsulotlardan o'zga xalqlarni bahramand etganlar, boshqa elatlarning maqbul mahsulotlarini keltirib, yurtimizning boyligiga boylik, el farovonligiga ulkan hissa qo'shganlar. Shu asnoda turli xil kasb-hunar, dehqonchilik rivojlanib, bir-biridan go'zal buyum va ashyolar, noz-ne'matlar yaratilgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning odob-axloqli bo'lishi va mehnatga muhabbat qo'yishga kata e'tibor beriladi. Bolalar ilk yoshdan boshlab uyda, ko'chada, bog'chada, mehmonda o'zini tutish

qidalar, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saranjom-sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo‘lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o‘rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob-axloqli, mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Xalqimiz orasida “qo‘g‘irchoq o‘yini” deb nomlanadigan tomoshalarning qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan va soyasi tushiriladigan turlari uzoq davrlardan beri qo‘llanilib kelinmoqda. Qo‘g‘irchoqlarning yasalishi, ularni o‘ynatilishi, chodiri va sahnasining ko‘rinish bezagidan, tomoshalarning mavzusi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko‘ra ushbu teatr turlari bir-birlaridan farqlansada, ulardagi har bir tomoshada musiqa muhim o‘rin egallashi, qo‘g‘irchoqbozning tomosha vaqtida qahramonlar holatini izohlagan holda tomoshabinlarga ko‘rinib turishi va moslamalar orqali qahramonlarga mos tovushlarni moslamalar orqali chiqarib turishi bilan o‘xshash.

O‘zbek an’anaviy teatrlashtirilgan tomoshalar qahramonlaridan biri “Kachal Polvon” hisoblanadi. Kachal Polvonni, asosan, mehnatkash xalq vakili sifatida qo‘lga kiyib o‘ynatilgan va tomoshalar ko‘rsatilgan. Uning bosh qismi yog‘ochdan yasalgan bo‘lib, egnida ko‘ylak, chopon, boshida do‘ppi bo‘lgan. U jasur va bahodir polvon sifatida shayton, dev va ajdardan qo‘rqmaydigan qilib ko‘rsatilgan. Tashqi ko‘rinishi qirra burun, qalin qoshli bo‘lgan. U oddiy xalq vakili sifatida tomoshalarda qatnashgan. Ushbu tomoshalar XIV asrdan boshlab xalqning e’tiboriga tushgan. Manbalarda keltirilishicha, “Bizgacha turli ko‘rinishlarda Kachal Polvon sarguzashtlari, komediyalari yetib kelgan. Komediyalarning ko‘pchiligi uch xil ko‘rinishda bo‘lgan: birida Kachal Polvonning Bichaxon ismli qizni sevib qolishi, uchrashuvi va uylanishi; ikkinchisida o‘z iti tomonidan talanishi; uchinchisidagi to‘qnashuv aks ettirilgan. Kachal Polvon ham kulgili holatlarga tushib qoluvchi, fe’l-atvori ham ziddiyatli qahramon. U bugun ziddiyati, ijobjiy va salbiy belgilari bilan hayotiy, xalqchildir. U hamisha xushchaqchaq holda hayotida uchragan to‘silarni yengib o‘tgan, yomon amaldor va sudxo‘rlarni fosh etgan, adolat va rostgo‘ylarni himoya qilgan”. Ko‘pgina teatr tomoshalaridan kelib chiqib, o‘zbek qo‘g‘irchoq teatri ijtimoiy fosh etuvchi va yumoristik xarakterga ega bo‘lib, muhim mafkuraviy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Mehnat an’analarining tarbiyaviy ahamiyatini unutmaslik lozim. Chunki mehnat munosabatini qaror toptirish yosh avlod tarbiyasining asosi hisoblanadi. Mehnat an’analarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirot eti shiga tayyorlash ham muhim ro‘l o‘ynaydi. Chunki mehnat an’analari zamirida shaxsning axloqiy sifatlari – mehnatsevarlik, yerga va tabiatga muhabbat, suvni isrof etmaslik, saxiylik, har bir pulning qadriga yetish, mehnat orqali baxtga erishish, qahramonlik kabi sifatlar qaror topadi. Bolalarning mehnatga muhabbat qo‘yib o‘sishida oiladagi ijtimoiy muhit juda katta ro‘l o‘ynaydi. Mehnat inson hayoti uchun, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo‘lib keladi. Mehnat faqat shaxsiy moddiy farovonlik manbaigina emas, balki el-yurtga xizmat qilish, Vatanimiz gullab-yashnashi va uning qudratini oshirish hamdir.

Barcha tirik mavjudot nimanidir iste’mol qilish hisobiga yashaydi, umrini davom ettiradi. Yerda yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydi. Mehnat jarayonidagi tirik jonzodlar hayoti sermazmun farovon bo‘ladi.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug‘lab kelishgan. Bunga ajdodlarimizdan me’ros bo‘lib qolgan ilmiy badiiy kitoblar, me’morchilik obidalari, san’at asalarining barchasi shu mehnatning mahsulidir. X asrning oxiri XI asrning boshlarida yashab ijod etgan Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etgan. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo‘lgan. Og‘ir mehnat sifatida binokor, ko‘mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm ahli olimlar mehnatiga alohida e’tibor berish, xayrirox bo‘lishga chaqirgan. Ularni ma’rifat tarqatuvchilar deb biladi. Shu bilan birga og‘ir mehnat qiluvchilar konchilar, dehqonlar haqida gapirib, ular mehnatini rag‘batlantrib turish kerak deydi.

Mehnat shaxsini har tomonlama kamol toptirishning asosiy omildir. Shuning uchun har bir bola maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab mehnat jarayonida ishtirot etishi kerak. Maktabgacha ta’lim muassasalarida oilada bajariladigan, murakkab bo‘limgan har bir topshiriq bolaning kundalik vazifasiga aylanishi lozim.

Bola mehnatning ahamiyatini, mohiyatini tushunib yetishi uchun tarbiyachi kattalar mehnati, bolalarning o‘zlarini bajara oladigan mehnat turlarini kuzatish bo‘yicha ekskursiyalar uyuştiradi.

A.S.Makarenkoning ota-onalarga bergen maslahatlariga asoslanib, shuni aytish mumkinki, bolaga besh yoshgacha yaxshi tarbiya berish kerak. Chunki bu vaqtida bola to‘liq fikrlaydi, uning tashqi sezgi organlari nihoyatda taraqqiy etgan bo‘ladi. Oiladagi kattalar, ota-onalar bola uchun mo‘tabar bo‘lib, bola kattalarga taqlid qiladi, ularning gap-so‘zlariga e’tibor qiladi. Keyingi tarbiya oilada berilgan dastlabki tarbiyaga asoslansa, maktabdagi tarbiyaviy ish oiladagi tarbiyaning tabiiy davomi bo‘ladi. Xuddi shunday bolaga mehnat tarbiyasini ham kichik yoshidanoq oilada bermoq kerak.

Bolalarni mehnatga psixologik jihatdan tayyorlash nazarda tutilganda, bu faqat mehnat malakalari bilan chegaralanib qolmasligi lozim. Asosiy maqsad bolada har qanday mehnatga hurmatni tarbiyalashdan iborat bo'lib, bolani mehnat qilishga o'rgatish bu oddiy mexanik mashq bo'lmasdan, balki asta-sekin bolaga mehnatning mohiyatini, mehnat – bu ijtimoiy hodisa ekanligini tushuntirishdan ham iboratdir.

Ta'limgartarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunar o'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnatsevar insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiylar axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namuna lari: topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari, "Avesto", Kaykovusning "Qobusnomasi", Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologiya", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan.

Mana shunday ertaklardan biri "Aql va boylik" ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata "Kim aqli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi", degan so'zlar orqali o'g'illarini mehnatga jalg qila olgan. Bunday tarbiyaviy ertaklarni maktabgacha ta'limgartasalarida sahnalashtirish bolalarni mehnatsevarlik asosida tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlani shiga qo'yiladigan davlat talabllari. – T., 2018 y
2. Abdusalil Mavru洛ov. Ma'naviy barkamol inson tarbiyasi. – T.: O'zbekiston, 2018
3. Sh.A. Sodikova. Maktabgacha pedagogika. – T.: Fan va texnologiya, 2012
4. Raxmonova D.M. Bolalarni maktabga tayyorlash texnologiyasi "Ta'limgartasi sifatini oshirish: muammolar, yechimlar va istiqbollar" (Buxoro tajribasi) Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi VXTB va BuxDU 2020-yil may oyida 454-bet.
5. Амонов У. С. Научный подход а. Фитрата к пословицам //Современные тенденции развития науки и технологий. – 2016. – С. 5.
6. O.R.Avezov. [Mental Status and Behavioral Reactions in Emergency and Extreme Emergencies](#). American journal of social and humanitarian research 3 (No. 1), 546-550
7. Adizova Nigora, Adizova Nodira. [Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari](#). Conferences.
8. Rakhmonovich, Adizov Bakhtiyor, and Adizova Nodira Bakhtiyorovna. "Microtoponyms formed on Different bases in Bukhara District." *Middle European Scientific Bulletin* 10 (2021).
9. Дустова Д. С. и др. О педагогическом мастерстве //european research. – 2020. – С. 132-134.
10. Safarov F. S. et al. Effect of a tissue biostimulator on the embryonic and post-embryonic development of lambs //Ucen. Zap. Azerbajdzan. sel'skohoz. Inst., Ser. vet. – 1969. – №. 4. – С. 69-72.
11. Saidova M. J. Methods and Importance of Using Innovative Technologies in Learning Concenter "Decimal" at Teaching Process of Math in Primary Schools //www. auris-verlag. de. – 2017.
12. Saidova G.E, Roziyeva Z.S. Methods for improving the system of assessing pupils 'knowledge based on the qualitological approach. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal <https://saarj.com.2020. 321-326>.
13. Hayitov H. A. Qushlarga ibrat-hazrati xizr! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.
14. Maftuna, U. (2021). Artistic interpretation of scientific achievements in the novel "Signs of the End Times" by Chingiz Aitmatov. Middle European Scientific Bulletin
15. Xudoyberdiyeva N. Abdulla qodiriy asarlarida tarixiy inversiya va folklor xronotopi masalasi: DOI: 10.53885/edinres. 2021.33. 43.090 Nodira Xudoyberdiyeva, BuxDU o'qituvchisi //Научно-практическая конференция. – 2022.

.....	225
Sidiqova Yulduz Sobirovna, PEDAGOGNING KREATIVLIGI BOLALAR IJODIY RIVOJLANISHINING ZARUR SHARTI	227
Джамолова Шахзода Фозил кизи, СУТЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ	229
Ne'matova Shirinoy Nizomiddinovna, RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR BILAN OLIB BORILADIGAN KORREKSION ISHLAR.....	231
Inomova Qudratoy, N.Z.Qodirova. TAYYORLOV GURUHLarda MATEMATIK TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRSHIDA MENTAL ARIFMETIKADAN FOYDALANISH	232
M.Sh. Mustafoyeva. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA BERISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	235
Имомова Мадина, ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ ЗВРУБЕЖНОГО ОПЫТА И НОВЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	237
Abdullaeva Muxayyo Iskandarovna, To'rayeva Sayyora Sattorovna. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI SAMARADORLIGINI JAHON TA'LIM STANDARTLARI ASOSIDA OSHIRISH VA XALQARO HAMKORLIK BORASIDAGI ISLOHOTLAR	239
Z.M. Ashurova. MAKTABGACHA TA'LIMDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASINING AHAMIYATI	242
Bahronova Gulnoza. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI RIVOJLANTIRISHDA O'YINING ROLI	244
Raxmonova Dilfuz Maxmudovna, MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TEATRLASHTIRILGAN TOMOSHALAR ORQALI MEHNATSEVARLIK ASOSIDA TARBIYALASH	245
4- SHO'BA: RAQAMLI TEXNOLOGIYA – MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODIFIKATSION FAOLIYATNI TASHKIL ETUVCHI JARAYON SIFATIDA 249	
Sharipova Dilbar, Sharipova Dilnoz, Sa'dullayeva Dilnavoz, MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIMDA KADRLAR TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	249
Elmurodova Maftuna Erkinjon qizi, BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA VAQTGA OID TASAVVURLARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI	251
Boltayeva Sitora Fayzulloyevna, O'QUVCHILARNING O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	254
G'aybulloyeva Dilfuz, BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI	256
Hayitov Hamza Ahmadovich, Sayfulloyeva Dilnoza Amrulloyevna, RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA	258
G'aybulloyeva Yulduz Mehriddinovna, BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH VA UNI O'TKAZISH USULLARI	260
O'. Mustafoyeva, SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MUSTAQIL O'QISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI	262
Ro'ziyeva Nigora, 3-SINF MATEMATIKA DARSLIGIDAGI ULUSH VA KASRGA OID MASALALARNING TAHЛИLИ	264
Nigora Mamayusufovna Kenjaboeva, Turg'unoy Saydullaevna Abdieva, BOSHLANG'ICHTA'LIMNING YANGILANISH JARAYONIDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	267
J. Z. Sayfiddinova, BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARING MANTIQIY FIKRALASHINI SHAKLLANTIRISHDA MAQOLLAR ORQALI ZID MA'NOLI SO'ZLARNI O'RGATISH.....	269
Qurbanova Sanobar Usmonovna, BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT KOMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNI O'QITISH JARAYONIDA QO'LLASH	271
R.X.Jumayev, Mizrobova Mohigul, BOSHANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	273
Adizova Nigora Baxtiyorovna, N.B. Rajabova, O'ZBEK XALQ ERTAKLARINING BOLA TAFAKKURIDAGI O'RNI	275
Ruzmetova Sayyoraxon Timurxonovna, TALABALAR BILIMI TRANSFORMATSIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TATBIQ ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA RIVOJLANISH OMILLARI	277
Quliyeva Gulnoza Isroilovna, BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARINI LOYIHALASHTIRISH.....	278